O‘QITUVCHI PEDAGOGIK MAHORATIDA ESTETIK MADANIYAT QIRRALARI

Ergashev R.N.,
Guliston davlat pedagogika instituti
professori v.b., ped. fan. nomzodi
e-mail: ergashev@mail.ru 90 255 14 09
Umirzakova R,
Mirzaobod tumani 27-maktab direktori

Annotatsiya: ushbu tezisda estetik madaniyatning mazmun va mohiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy xarakterga ega ekanligi, jamiyatda tutgan o‘rni va asosiy vazifalari, ta’lim va tarbiya jarayonida barkamol shaxsni shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kulturalogiya, madaniyat, ma’naviyat, ma’naviy madaniyat, uning tur va shakllari, estetik madaniyat, barkamol shaxsni shakllantirish omili, “Men” konsepsiyasi.

Аннотация: тезисы раскрывают содержание и сущность эстетической культуры, специфические особенности, социальный характер, роль и основные задачи эстетической культуры в обществе, а также возможности совершенствования всестронне- развитой личности в процессе обучения и воспитания.

Ключевые слова: культурология, культура, духовность, виды и формы духовной культуры, эстетическая культура, фактор совершенствования гармонично развитой личности, концепция «Я».

Annotation: the theses reveal the content and essence of aesthetic culture, specific features, social character, role and main tasks of aesthetic culture in society, as well as the possibilities of improving a comprehensively developed personality in the process of training and education.

Key words: cultural studies, culture, spirituality, types and forms of spiritual culture, aesthetic culture, factor of improving a harmoniously developed personality, the concept of "I".

Uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasida olib borilayotgan davlat siyosatida har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni voyaga yetkazish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ta’kidlash joizki, insoniyat taraqiyotining barcha davrlarida estetik madaniyatni shakllantirish yetakchi g‘oyalardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi konsepsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda talaba-yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirish masalasini ko‘rib chiqish davr talabidir.

Madaniyat – «insoniyatning moddiy va ma’naviy faoliyati natijasida yuzaga kelgan, jamiyat va insonning muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichidir». «Keng ma’noda «madaniyat» tushunchasi inson hayotining barcha sohalarini o‘z ichiga

oladi. Tor ma’noda u insonning ma’naviy sohadagi hayotiy faoliyatini anglatadi. Jamiyat va u bilan birga madaniyat ham rivojlanadi. Madaniyat rivojlanishi bilan insonlarning o‘zlari ham o‘zgarib boradi. Madaniyat o‘zining ichki mazmun va mohiyatiga ko‘ra, «insonning jamiyat a’zosi, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida kamolga yetishi, uning faoliyat sub’ekti sifatida hayot kechirishi jarayonida individual – ijodiy, ijtimoiy, intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish mezonidir»[5].

Ma’naviy madaniyat turlari – ma’naviy sohada yuzaga kelgan, targ‘ib va istimol qilish mumkin bo‘lgan faoliyat turlari: «badiiy ijodiyot, ta’lim, tarbiya, ma’rifat, ommaviy axborot vositalarining har xil faoliyat turlari»[6]; siyosiy, estetik, badiiy, axloqiy va boshqa madaniyat turlaridir. Ma’naviy madaniyat turlarida milliy va umuminsoniy mazmun ustuvorlik qilishi, barkamol shaxsni tarbiyalashda ulardan maksimal foydalanish ko‘zda tutilayotganligi masalasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Estetik madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari, xarakteri, mazmun va mohiyati, asosiy vazifalari nimalardan iborat ekanligini aniqlash lozim.

Ilmiy adabiyotlarda «madaniyat» tushunchasining to‘rt yuzdan ortiq ta’rifini (Arnoldov A.I., Artanovskiy S.N., Baller E.A., Bibler V.S., Vitani I.I., Davidovich V.Ye., Jdanov Yu.A., Kagan M.S., Kardash Ye.Yu., Kreber A., Levi-Stross K., Molaxov V.A., Mejuev V.M., Markaryan E.S., Teylor E., Uayt L., Flier A.Ya. va boshqalar) uchratish mumkin. Masalan, ulardan biri uni shunday ta’riflaydi: «Estetik madaniyat – sub’ekt sifatida inson o‘z estetik ehtiyoj va qobiliyatlarini tarixan yuzaga kelgan va muntazam rivojlanib borayotgan jamiyatning moddiy, ijtimoiy, ma’naviy sohalarida ro‘yobga chiqarish shakllaridir».

«Kulturalogiya. XX vek» ensiklopediyasida estetik madaniyatga quyidagicha ta’rif berilgan: «insonning tashqi olam bilan yaqin aloqa o‘rnata olish, uni his etish, turli xil munosabatlar mazmunini boshidan kechirish, ularni bir butunligicha va insonlarga xos tarzda ifoda etish qobiliyati va ko‘nikmasidir»[7]. Falsafiy-estetik nuqtai nazardan estetik madaniyatga bunday ta’rifning berilishi to‘g‘ri albatta, biroq pedagogikada ham uni aynan shunday qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Bugungi kunga qadar falsafiy lug‘atlar, falsafa ensiklopediyasi, katta ensiklopediya, pedagogik lug‘atlar va kichik (mahalliy va xorijiy) ensiklopediyalarda «estetik madaniyat» tushunchasiga izoh berishda muayyan bir to‘xtamga kelingan emas. «Estetik madaniyat» tushunchasi turlicha talqin etiladi. Qolaversa, falsafa, sotsiologiya, estetika, pedagogika kabi fanlarda shaxsning estetik madaniyati o‘ziga xos yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Shaxs estetik madaniyati tushunchasini tadqiq etish «shaxs» tushunchasini o‘rganish, unga turlicha qarashlardan o‘z tadqiqot ishimizga yaqin bo‘lganlarini ajratib olishni taqozo etadi.

[5] Шуркова Н.Е. и др. Новые технологии воспитательного процесса. – М., 1994. – С. 106

[6] Тамже. – С. 117

[7] Энциклопедия. Культурология. XX век. - М., 1991. – С. 401

Psixologiyada «shaxs» tushunchasiga ijtimoiy munosabatlar tizimida faol va ongli faoliyat yurituvchi sub’ekt, boshqalar bilan o‘zaro aloqa va munosabat o‘rnatish jarayonida rivojlangan individ sifatida qaraladi.

S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha: «Shaxs» – tabiatan berilgan iqtidor va o‘ziga xos xususiyatlarning ijtimoiylashuvidir; A.N.Leontevning fikricha: «Shaxs» – shaxsning boshqalar bilan birgalikda maqsadli faoliyat olib borish natijasida rivlojlanib va yanada takomillashib boruvchi sifatlar tizimidir; L.S.Выgotskiyning ta’kidlashicha: «Shaxs» – bu aniq maqsadga yo‘naltirilgan faollik, motivatsiya, qiziqish, e’tiqod va boshqalardir; V.N.Myasishevning fikriga ko‘ra: «Shaxs» – bu anglab yetilgan xatti-harakatlar, munosabatlardir; V.N.Uznadzening fikiricha: «Shaxs» – bu chuqur anglab yetilgan chog‘lanishdir; L.I.Bojovichning fikricha: «Shaxs» – individual xarakter, motiv va yo‘nalishga ega bo‘lgan sifat va xususiyatlar yig‘indisidir; B.M.Teplovning ta’riflashicha: «Shaxs» – o‘ziga xos xarakter, temperament, qobiliyatlardan tashkil topgan xususiyatlaridir; A.V.Petrovskiyning ta’kidlashicha: «Shaxs» – boshqa individ (alohida va bir guruh shaxs)lar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatuvchi, boshqa odamlar hayotiy faoliyatiga ideal tarzda kirib boruvchi individdir[8].

Yuqorida qayd etilgan «shaxs» tushunchasi haqidagi barcha qarashlarga to‘liq qo‘shilamiz. Chunki ularning ishlarida zamonaviy psixologiyada o‘z ifodasini topgan shaxs tuzilishining to‘rtta bloki, uning tipik tarkibiy qismlari hisobga olingan: yo‘nalish, imkoniyatlar, xarakter va xulq-atvor uslubi, o‘z «Meni»ni boshqarish tizimi – albatta, bularning barchasi ijtimoiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, biz V.V.Dovidovning shaxs to‘g‘risidagi quyidagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlaymiz: *shaxs* – bu:

- insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlari yig‘indisi;
- insonning atrofdagi olam, u orqali o‘ziga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlar tizimi;
- uning jamiyatdagi.o‘rni, xatti-harakatlar majmuini bajarishga qaratilgan faoliyat tizimi;
- atrofdagi olam va unda o‘z o‘rnini anglab yetishi;
- undagi barcha ehtiyojlar tizimi;
- bir guruh qobiliyat, ijodiy imkoniyatlar yig‘indisi;
- uning tashqi omillar ta’siriga munosabati va boshqalar[9].

Shaxsni aynan shunday tasavvur etgan holda quyidagicha fikrga keldik: inson muayyan ijtimoiy va moddiy muhitda hayot kechirar ekan, u yoki bu darajada boshqalar bilan muloqotga kirishish va tabiat bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish, ularga o‘zgartirishlar kiritishga harakat qiladi, o‘zining turli xil sifat va xususiyatlar tizimni namoyon etadi – aynan shuning o‘zi shaxsdir; bu esa uning atrof olam bilan turli xil aloqalar o‘rnatishida namoyon bo‘ladi; bunga uning sub’ekt sifatida o‘z-o‘zini, «Men»i, o‘z-o‘zini anglab yetishi ham kiradi.

Estetik madaniyatni murakkab ijtimoiy hodisa, ya’ni «madaniyat» fenomeni sifatida ko‘rib chiqish zarur.

[8] Психология: Словарь. – М.: Издательство политическая литература, 1990. – С. 193-194

[9] Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: МНТОР. 1996. - С. 317

«Madaniyat» – insoniyat faoliyati natijasida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklardir. U tarixan yuzaga kelgan va muntazam rivojlanadi. Madaniyat turli shakllarda namoyon bo‘ladi. U nafaqt milliy, umuminsoniy mazmunga ham ega. Madaniyat har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Estetik madaniyat – tarixan yuzaga kelib, muntazam rivojlanishda bo‘lgan ijtimoiy-ma’naviy, insonlarga xos hodisadir. Estetik madaniyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, uning tarixan yuzaga kelgan, muntazam rivojlanishda bo‘lgan, estetik ehtiyoj va qobiliyatlarini inson amaliyotga tadbiq etishi va ruyobga chiqarishi mumkin bo‘lgan ko‘plab shakllari mavjud. Inson unda ijtimoiy sub’ekt sifatida faol ishtirok etadi. Estetik madaniyat inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘ladi.

Badiiy madaniyat, xalqimiz tomonidan yaratilgan va jamiyatda o‘z vazifasini o‘tab kelayotgan badiiy qadriyatlar (san’at asarlari) – estetik madaniyat tarkibida alohida o‘rin tutadi. U jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Estetik madaniyat (uning tarkibiy qismi bo‘lgan badiiy madaniyat) – shaxsning integratsiyalashgan mahsulidir. Shuning uchun ham u murakkab tadqiqot ob’ekti sifatida ijtimoiy, falsafiy, estetik, kulturologik, psixologik, pedagogik, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan (shaxs, uning ichki tuzilishi; shaxs estetik madaniyatining mazmunini tashkil etuvchi – estetik yo‘nalganlik, estetik ong, estetik munosabat, o‘z-o‘zini anglash, estetik faoliyat va uning turlari, o‘z-o‘zini estetik takomillashtirish va boshqalarga qaratilgan) yondoshuvlarni talab etadi.

Estetik madaniyat jamiyatda (Krылov N.B. va Pechko L.P.) muayyan vazifalarni bajaradi:

bilimlarni joriy etishi bilan – ma’lumotlarni to‘plash;

estetik e’tiqodlarni joriy etishi bilan – qadriyatlarga bo‘lgan munosabat;

o‘z estetik qobiliyatlarini ruyobga chiqarish bilan – estetik madaniyaning ijtimoiy-ijodiy yo‘nalishini belgilovchi amaliy faoliyat;

o‘z xati-harakatlari va faoliyatini emotsional va me’yor talablari asosida mustaqil boshqarish bilan – muloqotli boshqaruv[10].

Ta’kidlash joizki, ushbu vazifalar – shaxsni shakllantirishning muhim yo‘llari hisoblanadi.

«***Estetik madaniyat***» tushunchasi turlicha talqin etiladi:

- ijtimoiy, operatsion vosita – O.V.Larmin;
- badiiy madaniyatning o‘ziga xos ko‘rinishi – L.N.Kagan, I.Masa;
- mavjud ob’ektiv qadriyatlarni inson tomonidan o‘zlashtirilishi va uning shunday qadriyatlarni yaratishga qaratilgan faoliyat me’yorlari – U.F.Suna;
- ijodkorlik, yaratuvchanlik, ma’naviy xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxsning individual estetik madaniyati – M.V.Piradov;
- inson ongi, uning his-tuyg‘u va qobiliyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, ularning o‘zaro murakkab integratsiyasi mahsuli. Shaxsning

[10] Крылов И. И. Педагогические условия формирования эстетической культуры старших подростков в дополнительном образовании общеобразовательных учреждений: Автореф. дис. …канд. пед. наук. М., 2007. – 23 с.

go‘zallikni idrok etish va to‘g‘ri tushinib yetish, unga baho berish va uni yaratishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos fazilatlar majmuidir – M.A.Verb[11].

Ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, M.A.Verbning ushbu tushuncha haqidagi fikrlariga tayangan holda «shaxs estetik madaniyati» tushunchasiga aniqliklar kiritish, uni modifikatsiya qilishga harakat qildik. O‘z fikr-mulohazamizdan kelib chiqib, «shaxs estetik madaniyati» tushunchasining quyidagi jihatlariga e’tiborni qaratdik:

- atrofdagi olamni «go‘zallik qonuniyatlari» asosida o‘zgartirish ishlarida ijtimoiy faollik ko‘rsatish, to‘plangan tajribalar asosida va o‘zaro aloqa o‘rnatgan holda go‘zalliklar yaratish;
- shaxsda estetik madaniyatni shakllantirish, uni takomillashtirish jarayonida asosiy natijalarga erishish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida «estetik boy dunyoqarash» – estetik ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish.

Demak, estetik madaniyat tarix, mafkura, jamiyat va inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismi, uning integratsiyalashgan mahsulidir. Uning asosiy mazmun va mohiyati shudaki, estetik madaniyat shaxsda tarkib topib, uning o‘ziga xos bo‘lgan estetik munosabat va ijtimoiy sohada faoliyat olib borish, boshqalar bilan muloqot o‘rnatish, ijodiy qobiliyatlarini ruyobga chiqarish jarayonida namoyon bo‘ladi. Estetik madaniyat va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan badiiy madaniyat – shaxs kamolotining omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шуркова Н.Е. и др. Новые технологии воспитательного процесса. – М., 1994. – С. 106
2. Энциклопедия. Культурология. XX век. - М., 1991. – С. 401
3. Психология: Словарь. – М.: Издательство политическая литература, 1990. – С. 193-194
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: МНТОР. 1996. - С. 317
5. Крылов И.И. Педагогические условия формирования эстетической культуры старших подростков в дополнительном образовании общеобразовательных учреждений: Автореф. дис. …канд. пед. наук. М., 2007. – 23 с.
6. Верб М.А. Педагогическая культура личности: общая культура – условие профессионализма педагога. Научная эрудиция, ценностные ориентации как компоненты педагогической культуры. Этика и эстетика педагогического труда. Педагогическое творчество и мастерство /В кн. «Введение в педагогическую деятельность». – М.: АКАДЕМА, 2000. – С. 106

[11] Верб М.А. Педагогическая культура личности: общая культура – условие профессионализма педагога. Научная эрудиция, ценностные ориентации как компоненты педагогической культуры. Этика и эстетика педагогического труда. Педагогическое творчество и мастерство /В кн. «Введение в педагогическую деятельность». – М.: АКАДЕМА, 2000. – С. 106